

**Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2025 yil yanvar-iyun**

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>2024 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot		
Sanoat mahsuloti	15 886,9	112,1
Ist'emoI tovarlari		
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari		
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar		
Qurilish ishlari		
Yuk aylanmasi (mln. tn–km)		
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.–km)		
Chakana savdo tovar aylanmasi		
Xizmatlar, jami		
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.) ¹⁾		
Eksport		
Import		
Saldo (+,-)		

* Ishlab chiqarish


...

II. SANOAT



Jizzax viloyatining shahar va tumanlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari



Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 15 886,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2024 yilning tegishli davriga nisbatan 112,1 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (ming so‘m)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga G‘allaorol tumani (33 098,1ming so‘m), Jizzax shahri (21 300,4 ming so‘m) hamda Zafarobod (10 333,9 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat ko‘rsatkichi (10 285,4 ming so‘m)dan yuqoriligi kuzatildi.



Aholi jon boshiga



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi eng ko'p 97,1 % ni tashkil etdi (2024 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 112,0 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 1,3 % ni (85,1 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish ulushi 0,6 % ni (166,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 1,0 % ni (130,2 %) tashkil qildi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish**
(2025 yilning yanvar-iyun oylari)

<i>Ko‘rsatkichlar nomi</i>	<i>Hajmi, mlrd so‘m</i>	<i>2024 yil yanvar-iyuniga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	15 886,9	112,1
Tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	158,6	130,2
<i>Shundan:</i>		
tog‘–kon sanoati bilan bog‘liq boshqa faoliyat	158,6	130,2
Ishlab chiqaradigan sanoati	15 430,6	112,0
<i>Shundan:</i>		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 628,4	121,5
ichimliklar ishlab chiqarish	28,0	110,1
to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 928,0	96,3
kiyim ishlab chiqarish	352,8	83,2
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	4,4	3,3 m.
yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	38,7	93,7
qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	78,4	129,7
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	4,2	111,1
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	206,3	73,4
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	0,0	0,0
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	216,8	109,8

davomi



<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>Hajmi, mlrd so'm</i>	<i>2024 yil yanvar-iyuniga nisbatan fizik hajm indeksi</i>
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1 377,0	100,1
metallurgiya sanoati	146,6	135,0
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	124,5	126,0
elektr uskunalarini ishlab chiqarish	400,9	94,8
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	47,3	75,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	6,4	150,5
Mebel ishlab chiqarish	183,1	101,5
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	116,4	117,1
mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	148,0	159,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish	8 394,3	127,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	204,6	85,1
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	93,1	166,3

Joriy yilning yanvar-iyun oylari davrida teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish o'sish sur'ati (3,3 m.) ga ega bo'ldi.

Ishlab chiqaradigan sanoat

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)


2023-2025- yillarning yanvar-iyun oylarida




2025- yilning yanvar-iyun oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 430,6 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘sinh sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning o‘sinh sur‘atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining hissasi (foiz hisobida)




Metallurgiya sanoati

1,0 %

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2025-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 135,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 146,6 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

8,9 %

Boshqa no metall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2025-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ulushi 8,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,1 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 1 377,0 mlrd so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

1,9 %



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 78,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 73,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 206,3 mlrd so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

12,5 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 96,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 928,0 mlrd so'mni tashkil etdi.





Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

10,6 %



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 9,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 137,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyun oylarda ulushi 10,6 % ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 121,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 628,4 mlrd so'mni tashkil etdi.




Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

1,4 %

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 85,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 109,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 216,8 mlrd so'mni tashkil etdi.





Ichimliklar ishlab chiqarish

0,2 %



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 11,5 % ni tashkil etgan. 2025-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra esa, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 28,0 mlrd so'mni tashkil etdi.




Avtotransport vositalari, treylerlar yarim tirkamalar ishlab chiqarish

54,4 %

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ulushi 52,2 % ni, uning fizik hajm indeksi 116,7 % ga o'sgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ulushi 54,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 127,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8 394,3 mlrd so'mni tashkil etdi.






Elektr jihozlari ishlab chiqarish

2,6%

Elektr jihozlari ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,5 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 94,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 400,9 mlrd so'mni tashkil etdi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da


Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining yoqori foiz ulushi) G'allaorol tumani (39,9 %), Jizzax shahri (26,9 %) va Paxtakor (4,5%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish** *(yirik korxonalar bo'yicha)*

<i>Mahsulotlar nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2025 yil yanvar-iyun</i>	<i>2024 yilning yanvar-iyuniga nisbatan foiz</i>
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyosini qayta ishlash	t	16 048,7	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	5 603,5	49,0
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	1 491,5	37,5
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	4 079,0	150,7
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	27,0	24,0
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	6,0	6,0 m.
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	0,0	0,0
Paxta chigiti	t	8 254,3	47,2
Momiq	t	534,4	49,7
Tozalangan o'simlik yog'i	t	13 894	2,3 m.
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	85 076,4	164,3
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	-	-
Yangi so'yilgan sovutilgan go'sht	t	602,5	126,5
Yumshoq bug'doy va spel'ta uni	t	1895,0	22,6
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	0,0	0,0
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	1 471,8	123,5
Portlandsement	t	1 235 785,0	127,7
«KIA» avtomobili	dona	11 763,0	126,9
«CHERY» avtomobili	dona	4 131,0	99,3
«HAVAL» avtomobili	dona	3 538,0	6,5 m.
"BYD" rusumli yengil avtomobillar, ichki yonuv dvigateli ham boshqara oladigan elektr dvigateli	dona	7 000,0	0,0
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	18 928,5	106,4


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 208,9 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,5 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 208,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,5 % ni tashkil etdi. Hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi Arnasoy, Baxmal va Yangiobod tumanlarida (98,0 %) yuqori ekanligini ko'rsatdi.



Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlari ulushining Paxtakor (22,0 %), Do'stlik (20,0 %) hamda G'allaorol (1,6 %) tumanlarida kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

